

This is not registered version of Total Doc Converter

Zavq savqatiga ega shahar bog'ida ketib borardim. Goh qo'ng'iroqdek tovush diqqatimni tortdi:

- Amatijon, mana shu pulga bitta lolayizdan belasizmi?

Ovoz kelgan tomonga qaradim. Atlas ko'ylakchasi ustidan qizil kofta kiygan, qop-qora sochlariga qo'nib turgan kapalakdek oq, lenta bog'lab olgan jajji qizcha. U darvoza yonida lola sotib o'tirgan cholga kaftidagi tangani uzatib turar, qalin kipriklarini pipiratib tog'oradagi lolalarga zavq bilan tikilar edi. Qip-qizil lolalar esa olovdek lovillardidi.

Qora chopon kiygan chol qizchani oppoq kaftidan chaqani olib ko'zlariga yaqinlashtirdi. U kipriklariga tegay deb turgan qoshlarini chimirib tangaga tikildiyu basharasi tundlashib, goh o'ziga, goh lolalarga mo'ltirab turgan qizchani qo'lga tashladi. Qizchani hozirgina zavq bilan yashnab turgan ko'zlaridagi uchqun birdan so'ndi.

G'azabim qaynab ketdi, tez-tez yurib cholning oldiga yaqinlashdim. U meni ko'rishi bilan ildam qimirlab qoldi:

- Keling, mullo, keling, loladan beraymi?

Men indamadim. U cho'ntakka qo'l solishim bilan kaftini tutdi. Bor tangamni cholning kaftiga tashladim. Hayratdan baqrayib turishiga ham qaramay, bir dona lola oldim-da, yig'lamsirab ketayotgan qizchaga uzatdim. U bir zum ishonqiramay qarab turdi-da, yana ko'zlari yashnab, yuziga sevinch qalqidi. Qo'limdagi lolani darrov olib, shirin til bilan:

- Lahmat... tog'a! - deya xiyobonning ozoda yo'lakhasidan chopqillab ketdi...

Shu kuni qizcha, lolalar va chol takror-takror yodimga tusharkan, sekin bosh chayqab qo'yardim.